

“Mahallada duv-duv gap”



Bugun Termiz shahrida yana 7 ta mahallada “Mahallada duv-duv gap” targ‘ibot tadbirlari bo‘lib o‘tdi. Xususan, “Jo‘yjangal”, “Majnuntol”, “Nurli kelajak”, “Amu sohillari”, “Turon”, “Baynalmilal” va “Saxovat” mahallalarida “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun” shiori ostida o‘tkazilgan “Mahallada duv-duv gap” ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy-musiqiy tadbirlarida ishtirokchilar tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan aholining mamnunligi va shukronalik kayfiyatida ekanligi alohida e‘tirof etildi.

Tadbirlarda badiiy jamoalar va maktablarning iste‘dodli o‘quvchilari tomonidan ijro etilgan kuy va qo‘shiqlar barchani xursand qilib, raqslarga chorladi.

Ushbu tadbirlar shaharning barcha mahallalarida davom etmoqda.